

TARMOQ MALAKALAR RAMKASI

Reyestr raqami:

QR kod

1. Umumiy talablar va asosiy tushunchalar

Ushbu tarmoq malaka ramkasi O'zbekiston Respublikasi Milliy malakalar ramkasi, Mashg'ulotlarning milliy klassifikatori (MMK-2025) va Iqtisodiy faoliyat turlari umumdavlat tasniflagichiga muvofiq ishlab chiqilgan bo'lib, sug'urta faoliyati sohasida malaka darajasini tarmoqda qo'llaniladigan bilim, ko'nikma (mahorat), mas'uliyat va mustaqillik xususiyatiga qarab tasniflaydi.

Tarmoq malakalar ramkasi Sug'urta faoliyati sohasida malaka darajalarining yagona shkalasini belgilaydi, malakalarning qiyoslanishini ta'minlaydi, kasbiy standartlar va mutaxassislar malakasini muvofiqligini tasdiqlash hamda ularning malakasini tan olish tizimi uchun asos hisoblanadi.

Sug'urta faoliyati sohasi bo'yicha Tarmoq malakalar ramkasining asosiy maqsadi tarmoqda malaka darajalarining tizimlashtirilgan tavsifini, iqtisodiyotning istiqbollari va ustuvor yo'nalishlarini hamda tarmoqning strategik rivojlanishini hisobga olgan holda Milliy malaka ramkasi asosida mavjud malakalarga qo'yilgan talablarni shakllantirishdan, shuningdek, tarmoqlararo kompetensiyalar va turdosh mashg'ulotlar (malakalar) turlarini ko'rsatgan holda kasblar va lavozimlarni malaka darajalari bo'yicha xaritalashdan iborat.

Tarmoq malakalar ramkasining vazifasi keyinchalik kasbiy standartlarni ishlab chiqish uchun sohadagi joriy va istiqbolli jarayonlarni hisobga olgan holda ishchilarning funksional xatti-harakatlari, ko'nikmalari, qobiliyatlari va bilimlariga qo'yiladigan talablarni aniqlashdan iborat.

Ushbu Tarmoq malakalar ramkasida quyidagi asosiy tushunchalar qo'llaniladi:
anderrayter – sug'urta xavflarini baholaydigan va sug'urta shartnomalarini qabul qilish yoki rad etish bo'yicha qaror qabul qiluvchi mutaxassis;

bilim – kasbiy faoliyat doirasidagi vazifalarni bajarish uchun zarur bo'ladigan, o'rganilgan va o'zlashtirilgan ma'lumotlar;

guruh – Iqtisodiy faoliyat turlari umumdavlat tasniflagichi (IFUT (2.1-tahrir) bo'yicha iqtisodiy faoliyatning keng sohasini o'z ichiga olgan faoliyat turi;

iqtisodiy faoliyat turi – savdo uchun mo'ljallangan mahsulot ishlab chiqarish (xizmat ko'rsatish) maqsadida u yoki bu turdagi resurslarni (uskunalar, mehnat, texnologiya va boshqalar) birlashtirishga asoslangan ishlab chiqarish jarayoni;

informal ta'lim – aniq maqsadga yo'naltirilgan, ammo institutsionallashtirilmagan (muayyan qoidalar va normalarni mujassamlashtirmagan), rasmiy yoki norasmiy ta'limdan ko'ra kamroq

tashkillashtirilgan va tarkiblashtirilgan hamda oiladagi, ish joyidagi, yashash joyidagi va kundalik hayotdagi o'quv faoliyatini o'z ichiga olgan ta'lim shakli;

kasb – ko'nikma va bilimlarni talab qiladigan muayyan funksiyalar va vazifalarni bajarish bilan bog'liq bo'lgan faoliyat turi;

kichik sinf – sinf ichidagi faoliyatning aniq turlarini ifodalovchi faoliyat turi;

ko'nikma – mehnat vazifasi doirasida alohida yoki yakka harakatlarni jismoniy va aqliy jihatdan bajarish;

norasmiy ta'lim – ta'lim xizmatlari taqdim etilishini ta'minlovchi shaxs yoki tashkilot tomonidan institutsionallashtirilgan (muayyan qoidalar va normalarni mujassamlashtiruvchi), aniq maqsadga yo'naltirilgan va rejalashtirilgan, shaxsni butun hayoti davomida o'qitishdagi rasmiy ta'limga qo'shimcha va (yoki) uning muqobil shakli;

pul – uning vositasida boshqa barcha tovarlarning qiymati ifodalanadigan universal tovarning umumiy ekvivalent sifatida ishlatiladigan alohida ko'rinishi;

qimmatli qog'oz – hujjatlar bo'lib, ular mazkur hujjatlarni chiqargan yuridik shaxs bilan ularning egasi o'rtasidagi mulkiy huquqlarni yoki qarz munosabatlarini tasdiqlaydi, dividendlar yoki foizlar tarzida daromad to'lashni hamda ushbu hujjatlardan kelib chiqadigan huquqlarni boshqa shaxslarga o'tkazish imkoniyatini nazarda tutadi;

sinf – guruh ichida iqtisodiy faoliyatning o'rtacha darajada (tor doirada) aniqlangan turlarini ifodalovchi faoliyat turi;

sug'urta — muayyan voqea (hodisa) yuz berganda yetkazilgan zararining o'rnini qoplash, tovonlar va boshqa to'lovlar to'lash uchun maqsadli pul jamg'armalarini tashkil etish hamda ulardan foydalanish bilan bog'liq bo'lgan, jismoniy va yuridik shaxslarning manfaatlarini himoya qilishga doir munosabatlar;

sug'urtalovchi (sug'urta tashkiloti) – tegishli turdagi sug'urtani amalga oshirish uchun litsenziyaga ega bo'lgan va sug'urta shartnomasiga muvofiq sug'urta to'voni (sug'urta to'lovi) to'lovini amalga oshirish majburiyatini oluvchi tijorat tashkiloti bo'lgan yuridik shaxs;

sug'urta zaxiralari – sug'urta tashkilotlari tomonidan kelajakdagi sug'urta to'lovlarini ta'minlash uchun shakllantirilgan moliyaviy fondlar;

sug'urta da'volari – sug'urtalanuvchi tomonidan sug'urta hodisasi yuz berganda sug'urta tovonini talab qilish bilan bog'liq arizalar.

Mazkur Tarmoq malaka ramkasi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil, 30-sentabrdagi PQ-345-sonli "O'zbekiston Respublikasi milliy malaka tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil, 16-oktabrdagi PF-158-sonli "Kasbiy ta'limda malakali kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish va xalqaro ta'lim dasturlarini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 17-iyundagi "O'zbekiston Respublikasi milliy malaka tizimini tartibga solishga qaratilgan ayrim normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi VM-369-son qarori, shuningdek,

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, 1995-yil 21dekabrdagi "O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksi", 2021-yil 21-noyabrdagi O'zbekiston Respublikasining "Sug'urta faoliyati to'g'risida"gi qonuni hamda sug'urta faoliyatiga oid asosiy normativ-huquqiy hujjatlar asosida ishlab chiqilib amaliyotga joriy etilmoqda.

2. Tarmoq malakalar ramkasining pasporti

Soha (tarmoq) ning tavsifi:

Sug'urta sohasi — fuqarolar va xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy xavf va yo'qotishlarini qoplashga qaratilgan tizimdir. Ushbu tarmoq iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash va xavflarni boshqarish orqali jamiyat farovonligiga xizmat qiladi.

Seksiya nomi:

L Seksiyasi Moliyaviy Va Sug'urta Faoliyati

1-jadval. O'zbekiston Respublikasida Sug'urta sohasidagi TMR Iqtisodiy faoliyat turlari tasniflagichi (IFUT-2.1)ga muvofiq quyidagi iqtisodiy faoliyat turlarini qamrab oladi:

No	Seksiya	Bo'lim	Guruh	Sinf	Kichik sinf
1	L Seksiyasi Moliyaviy Va Sug'urta Faoliyati	65 Majburiy ijtimoiy sug'urtalashda n tashqari sug'urtalash, qayta sug'urtalash va nafaqa jamg'armalari faoliyati	65.1 Hayotni sug'urtalash	65.11 Hayotni sug'urtalash	65.11.0 Hayotni sug'urtalash
				65.12 Hayotni sug'urtalashdan tashqari sug'urtalash	65.12.0 Hayotni sug'urtalashdan tashqari sug'urtalash
			65.2 Qayta sug'urtalash	65.20 Qayta sug'urtalash	65.20.0 Qayta sug'urtalash
		66. Moliyaviy xizmatlar ko'rsatish va sug'urtalash bo'yicha yordamchi faoliyat	66.1 Sug'urtalash va nafaqa ta'minotidan tashqari moliyaviy xizmatlar ko'rsatish bo'yicha yordamchi faoliyat	66.19 Sug'urtalash va nafaqa ta'minotidan tashqari moliyaviy xizmatlar ko'rsatish bo'yicha boshqa yordamchi faoliyat	66.19.0 Sug'urtalash va nafaqa ta'minotidan tashqari moliyaviy xizmatlar ko'rsatish bo'yicha boshqa yordamchi faoliyat
				66.21 Sug'urta tavakkali va zararini baholash bo'yicha faoliyat	66.21.0 Sug'urta tavakkali va zararini baholash bo'yicha faoliyat
				66.22 Sug'urta agentlari va brokerlar faoliyati	66.22.0 Sug'urta agentlari va brokerlar faoliyati

				66.29 Sug'urtalash va nafaqa ta'minoti sohasidagi boshqa yordamchi faoliyat	66.29.0 Sug'urtalash va nafaqa ta'minoti sohasidagi boshqa yordamchi faoliyat
			66.3 Jamg'armalar ni boshqarish	66.30 Jamg'armalarni boshqarish	66.30.0 Jamg'armalarni boshqarish

TMR quyidagi kasbiy faoliyat turlari va mashg'ulotlar guruhlarini hisobga olgan holda ishlab chiqilgan:

T/r	Kasb (lavozim) kodi	Xizmatchilar lavozimlari va ishchilar kasblari nomlari
1.	11200	Markaziy tashkilotlar, muassasalar va korxonalarning rahbarlari
2.	13460	Moliyaviy faoliyat va sug'urta sohasidagi xizmatlar va bo'limlar rahbarlari
3.	13490	Boshqa mashg'ulot guruhlariga kiritilmagan ixtisoslashtirilgan xizmat ko'rsatish sohasidagi rahbarlar, b.g.k.
4.	21201	Aktuariylar
5.	24111	Auditorlar
6.	24112	Buxgalterlar
7.	24131	Moliyaviy tahlilchilar
8.	24132	Barqaror moliya va yashil investitsiyalar tahlilchilari
9.	24136	Sug'urta sohasidagi professional-mutaxassislar
10.	26311	Iqtisodchilar (umumiy)ga
11.	33130	Buxgalteriya hisobi bo'yicha yordamchi xodimlar
12.	33152	Sug'urtani baholash bo'yicha mutaxassislar
13.	33210	Sug'urta agentlari
14.	43121	Sug'urta ma'lumotlarini qayta ishlash va hisoblash xodimlari
15.	43129	Boshqa mashg'ulotlar guruhlariga kiritilmagan statistik, moliyaviy va sug'urta ma'lumotlarini qayta ishlash va hisoblash xodimlari, b.g.k.

3. Sug'urta sohasi tahlili

Mamlakatimiz iqtisodiyotini barqaror rivojlanishida hamda iqtisodiyotga qo'shimcha investitsiya resurslarini jalb qilishda sug'urta sohasi muhim o'rin tutadi. Sug'urta sohasini yanada rivojlantirish, sug'urta bozorida jahon andozalariga mos sug'urta xizmatlari ko'rsatilishini ta'minlash maqsadida davlat islohotlari amalga oshirilib kelinmoqda. Sug'urta sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida sug'urta bozori professional ishtirokchilari tomonidan keng qamrovli va zamonaviy sug'urta xizmatlari taqdim etib kelinmoqda, jumladan barcha majburiy sug'urta turlari va aksariyat ixtiyoriy sug'urta turlari onlayn tarzda ko'rsatilib kelinmoqda.

O'zbekistonda sug'urta bozorining holati (2024-yil yakunlari holatiga)

Bugungi kunda respublikada faoliyat yuritayotgan sug'urta tashkilotlari soni 33 tani, shundan umumiy sug'urta sohasida faoliyat yurituvchi sug'urta tashkilotlari 28 tani, hayot sug'urtasi sohasida faoliyat yurituvchi sug'urta tashkilotlari soni esa 5 tani tashkil etmoqda. Bundan tashqari quyidagi sug'urta bozori professional ishtirokchilari faoliyat ko'rsatib kelmoqda:

sug'urta brokerlari (11 ta);

aktuariylar (5 ta);

sug'urta agentlari (4 804 ta).

Sug'urta bozori so'nggi yillarda yuqori o'sish sur'atlarini namoyon etmoqda. Bu avvalo mamlakatimizda yuz berayotgan iqtisodiy o'sish bilan chambarchas bog'liq. 2024-yilda jami yig'ilgan sug'urta mukofotlari hajmi 9,8 trln. so'mdan oshdi va bu ko'rsatgich o'tgan yilga nisbatan 21,2 foizga ortdi. 2024-yilda sug'urta tashkilotlari tomonidan yuz bergan sug'urta hodisalari bo'yicha amalga oshirgan sug'urta to'lovlari miqdori 2,2 trln. so'mni tashkil etdi. Sug'urta tashkilotlari tomonidan yo'naltirilgan investitsiya resurslari 6,5 trln. so'mni tashkil etdi.

Sug'urta faoliyatini nazorat qiluvchi organ — Istiqbolli loyihalar milliy agentligi.

Sohaning asosiy turlari quyidagilardan iborat:

Transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urtalash.

Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urtalash.

Mulkni, jumladan uy-joy va biznes aktivlarni sug'urta qilish.

Tijorat banklari xavflarini sug'urtalash.

Hayotni sug'urtalash hali past darajada rivojlangan.

Sohadagi bozor ulushlari:

Sug'urta yig'implarining katta qismi majburiy sug'urta (avto va b.) hamda bank xavflarini sug'urtalash mahsulotlari hisobiga to'planadi.

Ixtiyoriy sug'urta hissasi sekin o'smoqda, ayniqsa hayotni sug'urta qilishda.

Sug'urta bozorida raqobat va texnologik daraja past, chunki ko'plab kompaniyalar tarmoqlashmagan va mahsulotlar turlari cheklanganligida ko'rinadi.

Sug'urta xizmatlarini raqamlashtirish jarayoni boshlang'ich bosqichda.

Majburiy sug'urta turlari bo'yicha elektron polislar, onlayn sug'urta platformalari joriy etilgan, ixtiyoriy sug'urta turlari bo'yicha hali to'liq qilinmagan.

Sohadagi mavjud muammolar quyidagilardan iborat:

Aholida sug'urta madaniyati past;

Sug'urta tashkilotlari xizmat sifatini oshirishga yetarlicha e'tibor bermaydi, bu borada biznes jarayonlarini raqamlashtirish va raqamli xizmatlarni keng joriy qilish sekin kechmoqda;

Sug'urta haqida xabardorlik va ishonch yetishmaydi;

Moliyaviy savodxonlik darajasi past;

Sug'urta tashkilotlarining moliyaviy barqarorligi bo'yicha xavflar mavjud;

Taklif etilayotgan rivojlanish istiqbollari va yechimlar quyidagilar:

Sug'urta madaniyatini oshirish takliflar quyidagilardan iborat:

Ommaviy axborot vositalari va ta'lim orqali aholida sug'urtaga ishonchni oshirish;

Raqamlashtirish: Biznes jarayonlarini raqamlashtirish, onlayn sug'urta tizimlarini kengaytirish, mobil ilovalar orqali xizmat ko'rsatish;

Xalqaro tajribani joriy etish: Xalqaro standartlar asosida audit va nazoratni kuchaytirish;

Sug'urta kompaniyalari uchun xalqaro standartlar va kapital yetarliligini joriy etish bo'yicha:

Solvency II talablariga o'xshash moliyaviy barqarorlik standartlarini joriy etish;

Kompaniyalarning qayta sug'urta (reinsurance) faoliyatini kengaytirish;

Sug'urta auditi va risklar tahlil tizimini xalqaro darajaga olib chiqish;

Sug'urta bozorida raqobatni kuchaytirish bo'yicha:

Yangi xususiy va xorijiy sug'urta kompaniyalari uchun bozorni ochish;

Litsenziyalash, javobgarlik va tartib-qoidalarini soddalashtirish;

Xalqaro kompaniyalar uchun faoliyat yuritish sharoitlarini yengillashtirish;

Huquqiy bazani takomillashtirish bo'yicha:

Yangilangan "Sug'urta faoliyati to'g'risida"gi Qonun qabul qilish;

Himoya mexanizmlari (sug'urtaga oid nizolarni hal qilishda sudsiz tizimlar – arbitraj, ombudsman) joriy etish.

O'zbekistonda iqtisodiyot tarmoqlarining yuqori sur'atlar bilan jadal rivojlanishi sug'urta xizmatlariga bo'lgan talabni ham mos ravishda ortib borishini taqozo etadi. Bu o'z navbatida mazkur tarmoqda faoliyat yurituvchi kadrlarga bo'lgan ehtiyoj yanada ortishini ko'rsatadi. Bugungi kunda sug'urta xavflarini baholash, sug'urta tashkiloti moliyaviy barqarorligi mezonlariga rioya qilish va ularni amalda qo'llanilishini ta'minlash, sug'urta zaxiralari hisobini to'g'ri va to'liq yuritish, sug'urta hodisalari bo'yicha sug'urtalanuvchilarning sug'urta da'volarini tezkor va sifatli bartaraf etish borasida professional bilim, malaka va ko'nikmaga ega mutaxassislarga ehtiyoj ortib bormoqda, bular quyidagilar:

- Anderrayter;

- Sug'urta zaxiralarini hisoblash bo'yicha mutaxassis;

- Sug'urta da'volari bo'yicha mutaxassis.

O'zbekistonda Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti, Singapur Menejment Universiteti, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti va turli

tarmoqlarga tegishli OTMlarning mos yo'nalishlari hamda ko'plab xususiy OTMlar moliyaviy menejment va sug'urtalash sohasida malakali mutaxassislar tayyorlash bo'yicha ish olib borishmoqda.

Bundan tashqari, sug'urta sohasining ko'plab mas'ul lavozimlarida nufuzli xorijiy ta'lim muassasalarini tamomlagan bitiruvchilar faoliyat yuritib kelishmoqda.

Shuningdek, sug'urta sohasi mutaxassislari dunyoning rivojlangan va rivojlanib kelayotgan mamlakatlarda malaka oshirib, tajriba almashib kelishlari tizimda faoliyat yurituvchi kadrlarning bilim va malakalari oshishiga xizmat qilmoqda.

Sug'urta sohasida 2025-2030-yillarda rivojlanish istiqbollari quyidagi asosiy yo'nalishlarga e'tibor qaratadi:

Yangi texnologiyalar: Raqamlashtirish va fintex bo'yicha sug'urta xizmatlarini onlayn platformalar (masalan, O'zbek Sug'urta portali) orqali ko'rsatish kengaymoqda. Mobil ilovalar va API integratsiyasi orqali sug'urta polislarini xarid qilish va da'volarni boshqarish jarayonlari avtomatlashtirilmoqda.

Sun'iy intellekt (AI) va katta ma'lumotlar (Big Data): AI asosida xavflarni baholash, da'volarni tezkor ko'rib chiqish va mijozlar profilini tahlil qilish uchun platformalar joriy etilmoqda. Masalan, 2025-yilda 5 ta yirik sug'urta kompaniyasi AI-asoslangan andarrayting tizimlarini sinovdan o'tkazishi rejalashtirilgan.

Bundan tashqari, sug'urta shartnomalarining shaffofligi va xavfsizligini ta'minlash uchun blokcheyn texnologiyalari joriy etilmoqda, ayniqsa qayta sug'urtalash jarayonlarida.

Xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlik: O'zbekiston sug'urta bozorini rivojlantirish uchun Xalqaro moliya korporatsiyasi (IFC) va Osiyo taraqqiyot banki bilan 2025-2027-yillarda \$200 mln.lik loyihalar amalga oshiriladi, bu sug'urta kompaniyalarining kapitallashuvini oshirishga xizmat qiladi.

Solvency II va IFRS 17 kabi xalqaro sug'urta standartlari 2026-yilgacha O'zbekistonda joriy etilishi rejalashtirilgan. Bu maqsadda Lloyd's of London va Allianz kabi xalqaro sug'urta kompaniyalari bilan tajriba almashinuvi kuchaytirilmoqda.

ACCA va CII (Chartered Insurance Institute) bilan hamkorlikda sug'urta mutaxassislari uchun xalqaro sertifikatlash dasturi 2025-yilda boshlanadi, bu 500 nafar mutaxassisning malakasini oshirishga xizmat qiladi.

Sohaning rivojlanish istiqbollari:

2030-yilgacha sug'urta bozorining umumiy mukofotlari hajmi 20 trln. so'mga yetkazilishi rejalashtirilgan, bu asosan ixtiyoriy sug'urta (hayot sug'urtasi, agrosug'urta) va raqamli xizmatlarning rivojlanishi hisobiga amalga oshiriladi.

Yangi sug'urta mahsulotlari, masalan, mikro-sug'urta va iqlim xavflaridan himoya qiluvchi sug'urta joriy etilib, kam ta'minlangan aholi qatlamlarini qamrab olish ko'zda tutilmoqda.

Xususiy va xorijiy sug'urta kompaniyalarining bozorga kirishi orqali raqobat kuchaytiriladi, bu xizmat sifati va innovatsiyalarni oshirishga xizmat qiladi.

Sohaning ishchi kuchiga bo'lgan ehtiyojlari quyida yoritilgan.

Yuqori talabdagi dolzarb kasblar:

Anderrayter kasbiga sug'urta xavflarini baholash va shartnomalarni tasdiqlashga bo'lgan ehtiyoj ortishi sababli talab 2025-2026-yillarda 25% ga oshadi.

Sug'urta da'volari bo'yicha mutaxassisi kasbiga sug'urta hodisalari bo'yicha tezkor va sifatli xizmat ko'rsatish talabi ortishi bilan talab 20% ga ko'payadi.

Sug'urta zaxiralarini hisoblash bo'yicha mutaxassisi kasbiga moliyaviy barqarorlik va Solvency II standartlariga rioya qilish uchun talab 15% ga oshadi.

Raqamli sug'urta mutaxassisi kasbiga Onlayn platformalar va fintex xizmatlariga bo'lgan ehtiyoj sababli talab yuqori.

Past talabdagi kasblar:

Oddiy sug'urta agentlariga raqamli platformalar va avtomatlashtirilgan xizmatlarning rivojlanishi sababli talab 10% ga kamayadi.

Qog'oz asosidagi hujjatlar bilan ishlaydigan mutaxassislarga elektron polislar va raqamli arxivlarning joriy etilishi bilan talab 5% ga pasayadi.

Raqamli sug'urta mutaxassisi, Onlayn sug'urta platformalarini boshqarish, API integratsiyasi va mobil ilovalarni ishlab chiqishda mutaxassis, Iqlim xavflari sug'urtasi mutaxassisi, Tabiiy ofatlar va iqlim o'zgarishlariga qarshi sug'urta mahsulotlarini ishlab chiqish va boshqarish kabi kasblar sohaga kirib kelayotgan XALIKK-2024 ga kirmagan yangi kasblar jumlasidandir.

Mikro-sug'urta mutaxassisi — Kam daromadli aholi uchun arzon sug'urta mahsulotlarini loyihalashtirish va joriy etish.

Sug'urta sohasi uchun mahalliy kadrlar tayyorlash tizimi:

O'zbekistonda sug'urta sohasida kadrlar tayyorlash asosan Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti (TDIU), Toshkent moliya instituti (TMI) va Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti (JIDU) orqali amalga oshiriladi. Ushbu muassasalarda sug'urta va moliyaviy menejment yo'nalishlari bo'yicha yiliga 1500 ga yaqin talaba ta'lim oladi, ularning 30% i sug'urta sohasiga ixtisoslashgan.

Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Malaka oshirish markazi sug'urta mutaxassislari uchun qisqa muddatli kurslar tashkil etadi, yiliga 1000 ga yaqin mutaxassis qayta tayyorlanadi.

Sug'urta sohasi uchun kadrlar tayyorlashda rivojlangan davlatlar tajribalari:

Buyuk Britaniyaning Chartered Insurance Institute (CII) sug'urta mutaxassislari sertifikatlashtirish va malaka oshirishda yetakchi. O'zbekistonda TDIU va TMI CII bilan hamkorlikda 2025-yildan sertifikatlash kurslarini boshlaydi, bu anderrayterlar va da'vo mutaxassislari tayyorlashga xizmat qiladi.

Germaniyada Allianz va Munich Re kabi kompaniyalar AI va Big Data asosida sug'urta xavflarini baholashda ilg'or tajribaga ega. O'zbekistonda ushbu tajriba asosida TMIda raqamli sug'urta yo'nalishi bo'yicha magistratura dasturi ochilishi rejalashtirilmoqda.

Singapurda NTUC Income mikro-sug'urta va raqamli platformalarda yetakchi. O'zbekistonda 2026-yilgacha mikro-sug'urta mutaxassislari tayyorlash uchun JIDUda maxsus kurslar tashkil etiladi.

O'zbekistona ish beruvchi tashkilotlarning sug'urta sohasi uchun kadrlarga ehtiyoji:

O'zbekSug'urta, Gross Insurance va Kafolat kabi yirik sug'urta kompaniyalari yiliga 500 ga yaqin anderrayter, da'vo mutaxassisi va raqamli sug'urta mutaxassislariga ehtiyoj sezmoqda.

Xususiy sektorda, masalan, Alfa Life va New Life Insurance, hayot sug'urtasi va mikro-sug'urta mutaxassislariga talabni oshirmoqda (yiliga 200-300 nafar).

Davlat sektorida, masalan, Istiqbolli loyihalar milliy agentligi, sug'urta xavflarini baholash va moliyaviy barqarorlikni ta'minlash bo'yicha mutaxassislarga ehtiyoj bildirmoqda (yiliga 100-150 nafar).

4. Tarmoqqa tegishli kasblar ro'yxati

Mashg'ulotlarning milliy klassifikatori (MMK-2025)ga muvofiq Iqtisodiyot, moliya va audit sohasi tarmog'iga tegishli kasblar ro'yxati quyidagi jadvalda keltiriladi:

T/r	Kasb (lavozim) kodi	Xizmatchilar lavozimlari va ishchilar kasblari nomlari
16.	11200010	Direktor va o'rinbosarlari
17.	13460009	Moliyaviy faoliyat va sug'urta sohasi xizmati rahbari
18.	13460014	Sug'urta agentligi boshqaruvchisi
19.	13460015	Sug'urta agentligi rahbari
20.	13490004	Bo'lim (bo'linma) boshlig'i (mudiri)
21.	21201001	Aktuariy
22.	21201005	Sug'urta bo'yicha aktuariy
23.	24111001	Auditor
24.	24111002	Buxgalter-auditor
25.	24112002	Buxgalter
26.	24131002	Moliyaviy tahlilchi
27.	24132003	Yashil sug'urta mahsulotlari tahlilchisi
28.	24136001	Anderrayter
29.	24136002	Sug'urta bo'yicha ekspert
30.	24136003	Sug'urta bo'yicha tahlilchi
31.	26311009	Komplayens iqtisodchi
32.	33130004	Buxgalter-kassir
33.	33152001	Sug'urta yo'qotishlari inspektori
34.	33152002	Sug'urta yo'qotishlarini baholash bo'yicha ekspert
35.	33152003	Sug'urta yo'qotishlarini baholovchi
36.	33210001	Intellectual mulk obyektlarini sug'urtalovchi
37.	33210002	Moliyaviy maslahatchi (sug'urta bo'yicha)
38.	33210003	Sug'urta agenti
39.	33210004	Sug'urta brokeri
40.	43121001	Anderrayter (o'rta malakali)
41.	43121002	Sug'urta brokerlik xodimi
42.	43121003	Sug'urta xizmati xodimi
43.	43129004	Garov shartnomalari bo'yicha xizmatchi

5. Yangi ishlab chiqilishi rejalashtirilgan kasbiy standartlar haqida ma'lumot

3-jadval

T/r	Kasbiy standartlar soni	Qamrab olinadigan kasb (lavozim)lar soni	Ishlab chiqiladigan yil va oy
1.	2	5	2025-yil

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 30-sentyabrdagi 345-son "O'zbekiston Respublikasi milliy malaka tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori, 6-ilovasidagi 2025-2026-yillarda kasbiy standartlarni ishlab chiqish reja-jadvaliga muvofiq, Iqtisodiyot, moliya, soliq va sug'urta sohalarida kasbiy malakalarni rivojlantirish bo'yicha tarmoq kengashiga tegishli bo'lgan 5 ta kasbiy standartning qolgan qismi Iqtisodiyot, moliya va soliq sohalarini qamrab oladi.

6. Tarmoq malakalar ramkasi malaka darajalarining tavsifi*

Malaka darajasi		Bilim	Ko'nikma (mahorat)	Mas'uliyat va mustaqillik	Kasbiy guruhlariga oid faoliyat turi va kasb (lavozim)lar kodi va nomi
Milliy malaka ramkasi (MMR)	Tarmoq malaka ramkasi (TMR)				
5	5	- Sug'urta sohasidagi asosiy qonunchilik va normativ-huquqiy hujjatlar. - Sug'urta da'volarini ko'rib chiqish va bartaraf etish reglamenti. - Davlat organlari bilan hamkorlik qilish va qonunchilik bazasini rivojlantirish bo'yicha bilim.	- Sug'urta hodisalarining kelib chiqish sabablari, holati va oqibatlarini tahlil qilish va baholash. - Sug'urtalanuvchilarga sug'urta hodisasi bo'yicha yordam va ko'rsatmalar berish. - Sug'urta da'vosini kelib tushishidan bartaraf etilgunga qadar boshqarish.	- Sug'urta da'volari bo'yicha ish hujjatlarini to'g'ri va sifatli yuritish. - Sug'urta da'volarini ko'rib chiqish va bartaraf etish reglamentiga qat'iy rioya qilish.	66.22 Sug'urta agentlari va brokerlar faoliyati 33210003 — Sug'urta agenti 66.21 Sug'urta tavakkali va zararini baholash bo'yicha faoliyat 33152002 — Sug'urta yo'qotishlarini baholash bo'yicha ekspert 66.19 Sug'urtalash va nafaqa ta'minotidan tashqari moliyaviy xizmatlar ko'rsatish bo'yicha boshqa yordamchi faoliyat 33210002- Moliyaviy maslahatchi (sug'urta bo'yicha)

6	6	- Sug'urta sohasidagi asosiy qonunchilik va normativ-huquqiy hujjatlar. - Turli soha va yo'nalishlarga oid xavflarni boshqarish bo'yicha chuqur bilim. - Iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida raqamli texnologiyalar keng joriy etilayotgan sharoitda kiber risklar (xavflar)ni baholash va boshqarish. - Ehtimollar nazariyasi va matematika asoslari. - Risk-menejment (xavflarni boshqarish) asoslari. - Sug'urta tashkiloti tarif siyosati, sug'urta turlari bo'yicha sug'urta tarifi stavkalari. - Sug'urta sohasidagi global va mintaqaviy bozor tendensiyalari, innovatsion texnologiyalar (InsurTech).	- Sug'urta tashkilotining moliyaviy barqarorligini ta'minlash. - Xavflarni baholash va xavflarni kamaytirish choralarini ko'rish. - Xalqaro miqyosdagi muzokaralar olib borish, qayta sug'urtalash (reinsurance) shartnomalarini tuzish.	- Sug'urta shartnomalarining to'g'ri bajarilishi uchun mas'ul bo'lish. - Sug'urtaga qabul qilinayotgan xavflarni chuqur o'rganish va tahlil qilish orqali xulosa chiqarish va qaror qabul qilish. - Sug'urta portfeli barqarorligini nazorat qilish va ta'minlash.	65.11 Hayotni sug'urtalash 65.12 Hayotni sug'urtalashdan tashqari sug'urtalash 65.20 Qayta sug'urtalash 24136001 - Anderrayter 66.22 Sug'urta agentlari va brokerlar faoliyati 33210004 — Sug'urta brokeri
---	---	---	--	--	--

7. Tarmoqning funksional xaritasi

MMR malaka darajasi	TMR malaka darajasi	66.19 Sug'urtalash va nafaqa ta'minotidan tashqari moliyaviy xizmatlar ko'rsatish bo'yicha boshqa yordamchi faoliyat 66.22 Sug'urta agentlari va brokerlar faoliyati	66.21 Sug'urta tavakkali va zararini baholash bo'yicha faoliyat	65.11 Hayotni sug'urtalash 65.12 Hayotni sug'urtalashdan tashqari sug'urtalash 65.20 Qayta sug'urtalash	Tegishli kasblar
		33210 Sug'urta agentlari	33152 Sug'urtani baholash bo'yicha mutaxassislar	24136 Sug'urta sohasidagi professional-mutaxassislar	
8	8				
7	7				
6	6	33210004 Sug'urta brokeri		24136001 Anderrayter	33210004 Sug'urta brokeri 24136001 Anderrayter
5	5	33210002 Moliyaviy maslahatchi (sug'urta bo'yicha); 33210003 Sug'urta agenti	33152002 Sug'urta yo'qotishlarini baholash bo'yicha ekspert		33210002 Moliyaviy maslahatchi (sug'urta bo'yicha) 33210003 Sug'urta agenti 33152002 Sug'urta yo'qotishlarini baholash bo'yicha ekspert

**8. Tarmoq malakalar ramkasini ishlab chiqishda ishtirok etgan tashkilot
(korxona)lar to'g'risida ma'lumot**

№	Ishlab chiquvchilar to'g'risida ma'lumot	
	Ish joyi va lavozimi	Familiyasi, ismi, otasining ismi
1	Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti "Sug'urta ishi" kafedrası dotsenti v.b., PhD	Xasanov Farrux Ravshanovich
2	O'zbekiston Respublikasi Istiqbolli loyihalar milliy agentligi Sug'urta bozori ishtirokchilari faoliyatini tekshirilishini o'tkazish va risklarni tahlil qilish bo'limi bosh mutaxassisi, mas'ul xodim	Egamov Zoxid Baxtiyorovich
3	"GROSS INSURANCE" AJ sug'urta kompaniyasi departament direktori	Mamatov Shodibek Suyunovich
4	"MY INSURANCE" AJ sug'urta kompaniyasi menejeri, PhD, dotsent	Nomozova Qumri Isoyevna